IJTIMOIY TARMOQLAR YOSHLAR HAYOTINI QANDAY O‘ZGARTIRYAPTI.

Karimov Kamronbek Kamoliddinovich

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga sotsiologik ta’siri o‘rganiladi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, shaxs shakllanishi, psixologik holati hamda madaniy, axloqiy va siyosiy faolligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasidagi ijtimoiy izolyatsiya, kiberzo‘ravonlik,noqonuniy daromad kabi salbiy ta’sirlari bilan birga, ularning fuqarolik faolligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishdagi ijobiy roli va shaxsiy rivojlanishdagi ijobiy ta’sirini ham ko‘rsatib o‘tiladi. Sotsiologik yondashuv asosida yoshlarni onlayn maydonlardan ongli foydalanishga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, sotsiologiya, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy shaxs, onlayn muloqot, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy salomatlik, kiberzo‘ravonlik, madaniy faollik,siyosiy faollik, virtual jamoatlar, axborot texnologiyalari, internet,fuqarolik faolligi

KIRISH: XXI asr axborot texnologiyalari asri bo‘lib, bu davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining muhim qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi juda yuqori bo‘lib, ular kundalik hayotining muhim qismini virtual muhitda o‘tkazmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning axborot olish, muloqot qilish, o‘z fikrini erkin ifoda etish hamda shaxsiy qiziqishlarini namoyon etishiga keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, bu platformalar yoshlarning psixologik rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy xulq-atvoriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, o‘smirlik va yoshlik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning o‘z-o‘zini anglash, o‘zini

baholash, ijtimoiy muhitga moslashish va shaxsiy identifikatsiyasi shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlar esa ushbu jarayonga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bir tomondan, ular yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, yangi do‘stlar orttirish imkonini beradi va bilim olish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa tomondan esa, virtual muhitga haddan tashqari berilish real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning kamayishiga, psixologik qaramlikka, stress va xavotir holatlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda psixologiya fanida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiyatiga ta’siri alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqot yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Virtual muloqot, tezkor axborot almashinuvi va ommaviy madaniyat oqimlari aynan shu platformalar orqali keng tarqalmoqda. Biroq bu qulayliklar ortida yoshlarning ma'naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham yashiringan. Yolg‘on axborot, buzuq g‘oyalar, begona madaniyat targ‘iboti, yosh ongini egallab, ularni o‘z milliy qadriyatlaridan yiroqlashtirishga xizmat qilmoqda. Ma'naviy bo‘shliq, befarqlik, o‘zini anglash muammosi aynan ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini behuda sarflayotgan yoshlar orasida ko‘proq kuzatilmoqda. Shu bois, yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta’siridan asrash, ularda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish zamon talabi bo‘lib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotini qanday o‘zgartiryapti:Bugungi kunda inson hayotini internet va zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab yoshlar turli platformalar orqali muloqot qiladi, ma’lumot oladi va vaqt o‘tkazadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashi, odatlari va hatto kelajak rejalari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.Avvalo, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari haqida to‘xtalish muhim. Eng asosiy foydalaridan biri axborotga tez va oson kirish imkoniyatidir. Oldin bilim olish uchun kitob izlash yoki ustoz topish kerak bo‘lgan bo‘lsa, hozir yoshlar bir necha soniya ichida kerakli ma’lumotni topa oladi. Turli videodarslar, onlayn kurslar va foydali sahifalar orqali ular mustaqil ravishda

o‘rganish imkoniga ega. Bu esa yoshlarning bilim darajasini oshirishga katta yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlari ham mavjud. Eng katta muammolardan biri - vaqtni behuda sarflashdir. Ko‘plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o‘tkazib, muhim vazifalarni kechiktirib yuboradi. Bu esa ularning o‘qishdagi natijalariga va kundalik tartibiga salbiy ta’sir qiladi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik esa keyinchalik katta muammolarga olib kelishi mumkin.Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ruhiy holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha odamlar o‘z hayotining faqat yaxshi tomonlarini ko‘rsatadi. Natijada boshqa yoshlar o‘zini ular bilan solishtirib, o‘zidan norozi bo‘lishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayishi mumkin. Bu esa tushkunlik, xavotir va stress kabi holatlarni keltirib chiqaradi.Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlari ham mavjud. Eng katta muammolardan biri — vaqtni behuda sarflashdir. Ko‘plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o‘tkazib, muhim vazifalarni kechiktirib yuboradi. Bu esa ularning o‘qishdagi natijalariga va kundalik tartibiga salbiy ta’sir qiladi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik esa keyinchalik katta muammolarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ruhiy holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha odamlar o‘z hayotining faqat yaxshi tomonlarini ko‘rsatadi. Natijada boshqa yoshlar o‘zini ular bilan solishtirib, o‘zidan norozi bo‘lishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayishi mumkin. Bu esa tushkunlik, xavotir va stress kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri:

1. Yoshlarning o‘z turmush tarzlarini boshqalarniki bilan qiyoslash natijasida o‘zini hurmat qilish pasayadi. Boshqalarning hayoti yorqinroq ko‘rinishi yoshlarda norozichilik hissini uyg‘otishi.

2. Doimiy ravishda yangiliklar va xabarlarni kuzatish ruhiy charchashga olib kelishi.

3. Internetga qaramlilikning ortishi, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanish vaqtni behuda sarflashga va jismoniy faollikning kamayishiga olib keladi.

4. Kiberbulling yani ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar haqorat, tahdid yoki zo‘ravonlikka uchrashi. (Kiberbulling qurboni bo'lgan kishining shaxsiy ma’lumotlarini, rasmlarini yoki videolarini tarqatish, uni sharmanda qilish yoki obro‘siga putur etkazish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish) Kiberbulling jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shu jumladan: Depressiya, tashvish,o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘qishga konsentratsiya olmasligi, o‘ziga zarar etkazish va hatto o‘z joniga qasd qilishga olib kelishi.

5. Haqiqiy hayotda etarli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishning yo‘qolishi o‘smirlarni ijtimoiy tarmoqlarga qaram qilishi mumkin, bu esa ularni yanada izolyatsiya bo’lishiga olib keladi.

6. Vaqtni noto‘g‘ri boshqarish: Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt sarflash o‘smirlarning o‘qish, sport yoki boshqa foydali faoliyatlar bilan shug‘ullanish vaqtini kamaytirishi.

7. Asosiy qadriyatlarning o‘zgarishi: Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan ma’lumotlar o‘smirlarning qadriyatlarini o‘zgartirishi, chalg‘itiib va ularni noto‘g‘ri yo‘naltirish. Yuqorida ko‘rilgan vaziyatlardan kelib chiqib yoshlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun quydagicha choralar qo‘llasak bu psixologik bosim va zo‘riqishni kamaytiradi. Media savodxonligini oshirish: Yoshlarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda tanqidiy fikrlashni o‘rgatish. Psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish. Maktablar va universitetlarda yoshlar uchun psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish, diagnostik usullar orqali doimiy ko‘rikdan o‘tkazishni nazoratini kuchaytirish lozim.Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtlarini saralash va cheklash. Yoshlarni real hayotda faol bo‘lishga undash va ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadigan vaqtni kamaytirish. Ota-onalar va o‘qituvchilar bilan uzluksiz hamkorlik. (Turli xil tadbirlar, ko‘rik tanlovlarda ota-onalar ishtirokini jalb qilish) Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi, lekin ulardan maqsadlifoydalanish kerak. Ruhiy salomatlikni saqlash uchun yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ongli va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish muhimdir. Shu bilan birga, ularga psixologik yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida sabab va oqibatni aniqlash mushkul. Ehtimol, u ruhiy salomatlikka

qandaydir ta'sir o‘tkazar, lekin o‘zini ezilgan va yolg‘iz his qilayotgan ayrim odamlar bu yerda o‘zi uchun qandaydir yangilik ocholmaydi. Lekin bunda ikki jihat bor: birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar uyquga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Odamlar yarim tungacha lentasini aylantirib yoki tunda ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishlari, tun yarmida bildirishnomalar olishi mumkin.Ikkinchi salbiy ta'sir — ijtimoiy tarmoqlar negativ ijtimoiy taqqoslashlarni faollashtirish darajasidir: siz o‘zgalar nimalar yozayotganini ko‘rasiz va o‘zingizni ulardan yomonroq yashayotganingizni his qilasiz. Boshqa tomondan, yoshlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlar va o‘yinlar — do‘stlar va yaqinlar bilan aloqalarni saqlab turish uchun dengizdagi qutqaruv balloni kabidir. Bu ayniqsa maktablar yopilgan pandemiya chog‘ida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga umumiy qiziqish va xarakterga ega bo‘lgan boshqa insonlar bilan muloqot qilish usuli bo‘lishi mumkin

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotiga kuchli va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular orqali yoshlar tezkor axborot olish, bilimini oshirish va dunyo bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘layotgan bo‘lsa, boshqa tomondan ortiqcha foydalanish salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Ayniqsa, vaqtni behuda sarflash, internetga qaramlik, ruhiy bosim va real hayotdagi munosabatlarning sustlashuvi kabi muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda.Shu bois, ijtimoiy tarmoqlardan ongli va me’yorida foydalanish, media savodxonlikni rivojlantirish hamda yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina ijtimoiy tarmoqlar yoshlar rivoji uchun foydali vositaga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salomov S.A. Internet va ijtimoiy tarmoqlar: yoshlar rivojidagi o‘rni va imkoniyatlari. – Toshkent, 2025.

2. Hasanboyev T.F., Shodmonova S.Sh. Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar: zamonaviy taraqqiyot omili. – 2025.

3. Abduqahhorova M.I. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot madaniyati va yoshlar tafakkuri. – 2025.

4. Muhamadiyev H.H., Karoboyev S.M. Raqamli muhit va yoshlar rivoji: ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni. – 2026.

5. Dusmamatova S.N. Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar psixologiyasining ijobiy jihatlari. – 2025.

6. Tojiboyeva N.T., Mahmudov O.U. Yoshlar identiteti va raqamli jamiyat. – 2026.

7. Saidov R. Yoshlar va media madaniyati. – Toshkent, 2020.

8. Tursunov S. Ijtimoiy tarmoqlar va axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent, 2019.

9. Karimova D. Digital Society and Youth Development. – London, 2020.

10. UNICEF. The State of the World’s Children: Digital Engagement and Youth. – 2021.